

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2012 – 2013-O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MAKTABLARINING 4-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN
ONA TILI, MATEMATIKA, JISMONIY TARBIYA
FANLARIDAN BOSQICHLI IMTIHON MATERIALLARI
VA METODIK TAVSIYALAR TO‘PLAMI**

TOSHKENT – 2013

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta'lim markazi huzuridagi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi bo'yicha ilmiy-metodik kengashda muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15 – 20% hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

ONA TILI VA MATEMATIKA

Tuzuchilar:

N. Ahmedova – RTM boshlang'ich ta'lim bo'limi boshlig'i;

Sh.Yo'ldosheva – Nizomiy nomidagi TDPU dotsent,p.f.n.

R.Anorboyeva –Angren shahar 43-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

N.Bikbayeva –pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

A.Sadikova- Nizomiy nomidagi TDPU dosenti, p.f.n.

G.Bekova - RTM bosh metodisti;

Yu.Jabborova – Toshkent shahar 26-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

JISMONIY TARBIYA

Najimov F.F. - RTM , Musiqa, san'at,mehnat ta'limi'jismoniy kamolot va salomatlik bo'limi bosh metodisti.

Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.

4-sinf

ONA TILI

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda imlo savodxonligini tarkib toptirishdir. Ushbu vazifa yozma ishlar, xususan, diktant orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning imlo va ishoraga oid savodxonligini aniqlashda diktantning o'rni muhim bo'lib, ta'lim samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadining aniqligi hamda metodning izchilligiga ko'ra belgilanadi.

2012-2013 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablari 4-sinf o'quvchilari bosqichli imtihonda ona tili fanidan grammatik topshiriqli diktant yozadilar.

Nazorat materiallari variantlar ko'rinishida oldindan ko'paytirilib, 7 ta konvertga solinadi va maktab rahbariga 15- aprelgacha topshiriladi.

Diktantni o'tkazish tartibi

O'quvchilarning imtihonga hozirligi ko'zdan kechirilgach, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini jalb qilgan holda diktant matnini bir marta ifodali o'qib beradi. Matni talaffuz me'yorlariga rioya qilib ifodali o'qish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga va matnning mazmunini hamda tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdirishga yordam beradi. Shundan so'ng o'qituvchi yozuv taxtasiga, o'quvchilar esa o'z daftarlariga sana va sarlavhani tartib bilan har birini xatboshidan yozadilar. O'qituvchi matndagi gaplarni aytib turadi, o'quvchilar yozadilar. Shuni ta'kidlash zarurki, so'zni bo'g'inlab yoki so'zma-so'z aytib turish mumkin emas. Har bir gap, so'z birikmasi ko'pi bilan uch marta takrorlanishi mumkin. Matnda o'quvchilar yozishi qiyin bo'lgan yoki o'rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan qiyin so'zlar uchrasa, o'qituvchining yozuv taxtasiga yozib berishi talab etiladi. Yozuv taxtasiga yozib beriladigan bunday so'zlar ikki yoki uchta oshmasligi kerak. Diktant yozib bo'lingach, o'quvchilar diqqatini jalb qilgan holda o'qituvchi matni sekinroq sur'at bilan yana bir marta o'qib beradi. O'quvchi o'z xatosini topsa, uni to'g'rilashiga yoki tushirib qoldirilgan so'zni yozishiga imkon beriladi. So'ng o'quvchilar yozganlarini yana bir marta ichida o'qib tekshiradilar. Shundan so'ng grammatik topshiriqlarni mustaqil ravishda o'zlari bajaradilar.

Grammatik topshiriqlar quyidagi yo'nalishlarda bo'ladi:

1. Fonetik tahlil.
2. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
3. So'z turkumlari yuzasidan tahlil.
4. Gap bo'laklari yuzasidan tahlil.
5. Leksik tahlil.

Diktantni baholash

Nazorat diktantida o'quvchilar imlo xatolariga yo'l qo'ymasliklari, tinish belgilarini to'g'ri ishlatishlari, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qilishlari,

husnixatlarining talab darajasida bo'lishi, matnda xatboshilarga rioya qilishlari, grammatik topshiriqlarni mustaqil bajarishlari kerak bo'ladi.

Har bir o'quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
7. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Bosqichli imtihonda grammatik topshiriqli diktant ona tili fanidan DTS va o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar asosida belgilangan har bir topshiriq 5 ball bilan baholanadi. Umumiy ball BKMLar soniga bo'linadi va umumiy baho sinf jurnaliga qo'yiladi.

Izoh: Nazorat diktanti matnini maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari 15% hajmida boshqa matn bilan almashtirish huquqiga ega. Bu matnlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodbirlashmasi hamda maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi shart.

O'qituvchi tomonidan tanlangan grammatik topshiriqli nazorat diktant matni Vatan, mustaqillik, milliy istiqloq g'oyalari, do'stlik, odob-axloq, ahillik, hurmat, kamtarlik, e'tiborlilik kabi fazilatlar, tabiat bilan bog'liq bo'lgan mavzularga oid bo'lib, o'quvchilarning savodxonligini oshirish bilan birga, bilim doirasini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Matn tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- matn bir shaxs tilidan ifoda etilgan bo'lishi;
- matnda ko'chirma, qo'shma gaplar, qo'shma so'zlar, kirish so'z va birikmalar bo'lmasligi;
- matn 2-3 xatboshidan va 75-80 so'zdan iborat bo'lishi;
- ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi;
- o'rganilmagan qoidalarga doir til birikmalarining ishtirok etmasligi.

Sport sog'liq garovidir

Sport sog'liqni mustahkamlaydi. Har bir kishi sport bilan shug'ullanishi kerak. O'g'il bolalar sportning futbol, kurash, boks turlari bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radilar. Qiz bolalar esa ko'proq gimnastika, tennis va sportning suvda suzish turini tanlaydilar. Aytgandek, shaxmat va shashka ham sport o'yinlari. Ko'chada bekinmashoq, quvlashmashoq o'ynaganda siz yugurasiz. Arqon o'ynaganda sakraysiz. Bunday o'yinlarni o'ynash sog'liq uchun juda foydalidir. Shunda tana

a'zolaringiz o'sadi, baquvvat bo'ladi. Shuning uchun sportni seving! Sportning biror turi bilan doimo shug'ullaning! Chunki, sport sog'liq uchun foydalidir. (75 ta so'z)

Grammatik topshiriqlar

1. "Futbol" so'zini fonetik tahlil qiling.
2. "Suvda" so'zini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
3. "Sport sog'liqni mustahkamlaydi" gapini so'z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. "Ko'chada bekinmashoq, quvlashmashoq o'ynaganda siz yugurasiz" gapini gap bo'laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. "Baquvvat" so'ziga ma'nodosh soz toping.

Har bir o'quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
7. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Kitob

Kitob –inson ma'naviy dunyosining boyligi, fikrlash doirasining kengayishiga katta yordam beruvchi vosita. Uhi doimo do'st tutish, undan ko'p narsalarni o'rganishga harakat qilish lozim.

Ko'p kitob o'qigan bola asardagi fikrlarni o'z qalbiga joylaydi. Yurt ravnaqi uchun xizmat qilishga, yaxshi insonlar qatoridan o'rin olishga harakat qiladi.

Kutubxona-nurxona. Kutubxonaga tez-tez boradigan bola ko'p narsalarni biladi. Chunki kitoblar inson umrining sermazmun o'tishiga, bilimli, ilimli bo'lishiga yordam beradi.

Dunyoviy bilimlarni egallashda kitobning xizmati beqiyosdir. Kitob bilim manbaidir. (75 ta so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. "Kitob" so'zini fonetik tahlil qiling.
2. "Bilimli" so'zini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
3. "Kitob bilim manbaidir" gapini so'z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. "Kutubxonaga tez-tez boradigan bola ko'p narsalarni biladi" gapini gap bo'laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. "Sermazmun" so'ziga ma'nodosh so'z toping.

Har bir o‘quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e‘tibor beriladi:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.
6. So‘z turkumiga ko‘ra tahlil.
7. Gap bo‘lariga ko‘ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Limondan hosil oldik

Uyimizda tuvaklarda har xil gullar o‘stiramiz. Men limon ekib, undan hosil olishga harakat qildim.

Dastlab limonning yaxshi pishib yetilgan urug‘idan ko‘chat tayyorladik. Uni madaniylashgan limon kurtagi bilan payvand qildik. Qalamchadan ko‘paytirilgan limon tez hosilga kirdi. Ikkita ko‘chatimiz bir yil o‘tgach nishona ko‘rsatib, oppoq gulladi. Gullagan beshta guldan bittasi tushib ketdi. Nihoyat, limon shoxida oltindek sap-sariq limon yetildi.

Limonni parvarishlashga alohida ahamiyat berilmasa qurib qoladi. Limon ko‘chatini mahalliy go‘ng sharbatidan oziqlantirish kerak.

Uyda o‘stirilgan limon havoni musaffo qiladi. (78 ta so‘z)

Grammatik topshiriqlar:

1. “Hosil” so‘zini fonetik tahlil qiling.
2. “Guldan” so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.
3. “Uyda o‘stirilgan limon havoni musaffo qiladi” gapini so‘z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “Uyimizda tuvaklarda har xil gullar o‘stiramiz” gapini gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “Musaffo” so‘ziga ma‘nodosh so‘z toping.

Har bir o‘quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e‘tibor beriladi:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.

6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
7. Gap bo'lariga ko'ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Non ushog'i

Boboning to'rt yoshli kichkina nevarasi bor. Uning ismi Anvarjon. U sho'x, quvnoq bola. Anvarjonning ko'zlari tim qora. Yerga ursa, ko'kka sakraydi. Kunlarning birida boboning oila a'zolari dasturxon atrofida yig'ilishdi. Anvarjon nonning ushog'ini yerga to'kib yer edi. Bobosi gilam ustidagi ushoqlarni terib, likopchaga soldi. Keyin ushoqlarni deraza oldida turgan musichalarga berdi. Bobo non ushog'ini uvol qilish mumkin emasligini nevarasiga tushuntirdi. U bobosining nasihatini tingladi. Anvarjon uvol bilan savob nimaligini bilib oldi. Non ushog'ini yerga tushirmaslikka ahd qildi. (78 ta so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. "Atrofiga" so'zini fonetik tahlil qiling.
2. "Ko'zlari" so'zini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
3. "U sho'x, quvnoq bola" gapini so'z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. "Anvarjon uvol bilan savob nimaligini bilib oldi" gapini gap bo'laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. "Ko'kka" so'ziga ma'nodosh so'zlar tanlang.

Har bir o'quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
7. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Kiyimlar nimalardan tikiladi?

Kiyimlaringizga razm soling. Ular qanday matolardan tikilgan? Matolar tolalardan, tolalar esa paxtadan hosil bo'ladi. Paxta tolalaridan tayyorlangan matolar ip-gazlamalar deb ataladi. Chit, satin, bo'z, doka va boshqa matolar paxta tolalaridan to'qiladi.

Ipak matolar pilla tolalaridan olinadi. Shoyi, atlas, krepdeshin kabi matolar esa ipak tolalaridan toqiladi. Jun matolar esa qo'y-qo'zi, echki, tuya kabi hayvonlarning junidan olingan iplardan tayyorlanadi. Shuningdek, sun'iy tolalardan ham matolar to'qiladi. Paxta, ipakdan olingan matolar narxi qimmat bo'ladi. Ular inson salomatligi uchun foydalidir.

Bolalar, egningizdagi kiyimlarni hamisha toza tuting. (79 ta so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. "Ipak" so'zini fonetik tahlil qiling.
2. "Foydali" so'zini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
3. "Ipak matolar pilla tolalaridan olinadi" gapini so'z turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. "Ular qanday matolardan tikilgan?" gapini gap bo'laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. "Toza" so'ziga ma'nodosh so'zlar tanlang.

Har bir o'quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- 1.Imloviy savodxonlik darajasi.
- 2.Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
- 3.Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
- 5.So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
- 7.Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
- 9.Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
- 10.Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Suv haqida nimalar bilasiz?

Suv bebaho boylik. Suvsiz hayot bo'lmaydi. Suv daryolardan oqib keladi.

Buxoro viloyati hududida daryo yo'q. Bu yerga suv kanallar yordamida keltiriladi. Shuning uchun har yili ariqlar, kanallar hashar yo'li bilan tozalanadi.

Ba'zilar jo'mraklarni ochiq qoldiradilar. Bu ish noto'g'ri. Chunki suvni isrof qilish gunoh!

Boyligimiz bo'lgan suvni tejang. Uning isrof bo'lishiga yo'l qo'ymang.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 22-mart kunini "Xalqaro ichimlik suvi kuni" deb e'lon qilgan. Bolalar, bu kunni siz ham o'z hissangizni qo'shgan holda nishonlashga harakat qiling. (79 ta so'z)

Grammatik topshiriqlar:

1. “Kanal” soʻzini fonetik tahlil qiling.
2. “Suvsiz” soʻzini soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling.
3. “Suvsiz hayot boʻlmaydi” gapini soʻz turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “Baʼzilar joʻmraklarni ochiq qoldiradilar” gapini gap boʻlaklari yuzasidan tahlil qiling.
5. “Boylik” soʻziga maʼnodosh soʻzlar tanlang.

Har bir oʻquvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga eʼtibor beriladi:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining toʻgʻri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. Soʻz tarkibiga koʻra tahlil.
6. Soʻz turkumiga koʻra tahlil.
7. Gap boʻlariga koʻra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Toshkentim – onam

Vatanimizning poytaxti – Toshkent . U juda goʻzal shahar. Koʻchalari keng va ozoda. Toshkentda turli millat kishilari yashaydilar.

Toshkentda Oʻzbekiston havo yoʻllari, temir yoʻl vokzali bor. Toshkent aeroportidan har kuni dunyoning turli shaharlariga samolyotlar uchadi. Poytaxtimizga havo yoʻllari orqali xorijiy davlatlardan koʻplab mehmonlar keladi. Toshkent temir yoʻlidan Samarqand shahriga “Afrosiyob” tezyurar poyezdi qatnay boshladi. U ikki soatda Samarqandga yetib boradi.

Poytaxtimizning koʻchalari kengaytirildi. Tezyurar tramvay yoʻllari qurildi. Ular kishilar vaqtini tejashga xizmat qilmoqda.

Muzeylar, istirohat bogʻlari, sport maydonlari Mustaqil yurt fuqorolariga xizmat qilmoqda. (80 ta soʻz)

Grammatik topshiriqlar:

1. “Mehmonlar” soʻzini fonetik tahlil qiling.
2. “Boshla” soʻzini soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling.
3. “Vatanimizning poytaxti – Toshkent” gapini soʻz turkumi yuzasidan tahlil qiling.
4. “Toshkentda turli millat kishilari yashaydilar” gapini gap boʻlaklariga koʻra tahlil qiling.
5. “Goʻzal” soʻziga maʼnodosh soʻz toping.

Har bir o‘quvchining BKM larini tekshirishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Fonetik tahlil.
5. So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil.
6. So‘z turkumiga ko‘ra tahlil.
7. Gap bo‘laklariga ko‘ra tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Matematika Tushuntirish xati

4-sinfda bosqichli imtihon o‘tkazishning asosiy maqsadi – boshlang‘ich maktabning rivojlanish bosqichida o‘quvchilarning dastlabki matematik tayyorgarlik davrida erishgan natijalarini aniqlashdan iborat.

2012-2013 o‘quv yilida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 4-sinf o‘quvchilari yakuniy bosqichli nazorat imtihonida matematika fanidan yozma ish yozadilar.

Nazorat materiallari variantlar ko‘rinishida oldindan ko‘paytirilib, 6 ta konvertga solinadi va maktab rahbariga 15- aprelgacha topshiriladi.

Bosqichli nazorat imtihonida o‘quvchilarga bittadan muhrlangan katak daftar beriladi. O‘quvchilar esa o‘zlari bilan chizg‘ich va ruchka (qalam) olib keladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni qator bo‘yicha variantlarga ajratadi. So‘ngra har bir qatordan bir o‘quvchi chiqib o‘qituvchi stoliga teskari qilib yotqizilgan variantlardan birini oladi. Shu qatordagi barcha o‘quvchilarga ko‘paytirilgan variantlar tarqatiladi. Variantlar tarqatilgandan so‘ng o‘qituvchi zaruriy tushunchalar beradi va vaqtni belgilab doskaga yozib qo‘yadi. Yozma ishni o‘tkazish uchun 45 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu davrda o‘quvchilar hisoblash ishlarini, tenglamalar yechish va boshqa topshiriqlarni yozma ravishda bajaradilar.

Matematikadan bosqichli nazorat ishi DTS va o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida baholanadi. Har bir yozma javob 5 ballik reyting tizimida baholanadi. 5 ta topshiriq bo‘yicha to‘plangan ballar jamlanib, 5 ga bo‘linadi va yaxlitlanadi. Yaxlitlangan o‘rtacha ball imtihonning haqiqiy bali hisoblanadi va sinf jurnaliga qo‘yiladi.

1–Variant

1. Amallarni bajaring:

$$46102 - 8934$$

$$10100 - 689$$

$$285 \cdot 8$$

$$34897 + 1487$$

$$8202 \cdot 7$$

$$5400 : 10$$

$$48162 : 3$$

$$6 \text{ kg } 375\text{g} : 5$$

2. Tenglamani yeching:

$$x \cdot 7 = 28$$

$$x - 215 = 406$$

3. Masalani yeching:

Ikki shahardan bir-biriga qarab ikkita avtomobil yo'lga chiqdi. Birinchi avtomobil soatiga 90 km tezlik bilan harakatlanib, ular uchrashguncha 180 km masofani bosib o'tdi. Agar ikkinchi avtomobilning tezligi soatiga 85 km bo'lsa, ular uchrashguncha necha km masofani bosib o'tadi?

4. Qavslarni shunday qo'yingki, to'g'ri tenglik hosil bo'lsin:

$$1867 - 298 \cdot 304 - 92888 = 384088$$

5. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonning uzunligi 85 m, yuzasi 4250 m^2 . Maydonning enini toping?

2-Variant

1. Amallarni bajaring:

$$97095 + 83008$$

$$60708 - 9690$$

$$47024 \cdot 7$$

$$9600 \cdot 4$$

$$28 \text{ so'm } 98 \text{ tiyin} : 3$$

$$65232 : 4$$

$$20\text{m } 75 \text{ m} : 5$$

$$8010 : 10$$

2. Tenglamani yeching:

$$506 - x = 128$$

$$250 : x = 5$$

3. Masalani yeching:

Omborda 336 yashik olma bor edi. Ombordan 12 ta mashinada har birida bir xil sondagi yashiklar olib chiqib ketilganda, yana omborda 120 yashik olma qoldi. Har bir mashinaga necha yashikdan olma ortilgan?

4. Qavslarni shunday qo'yingki, to'g'ri tenglik hosil bo'lsin:

$$7262 - 7139 \cdot 471 + 10014 = 67947$$

5. To'g'ri to'rtburchakning perimetri 200 sm va katta tomonining uzunligi 55 sm ga teng. To'g'ri to'rtburchakning kichik tomonini va yuzasini hisoblang.

3-Variant

1. Amallarni bajaring:

$$63267 - 4574$$

$$22100 - 479$$

$$465 \cdot 6$$

$$48320 : 80$$

$$24812 + 2128$$

$$2453 \cdot 5$$

$$6700 : 10$$

$$4 \text{ kg } 735 : 5$$

2. Tenglamani yeching:

$$5 \cdot x = 840$$

$$x + 320 = 642$$

3. Masalani yeching:

“Spark” avtomashinasida 4 soat, “Otayo’l” avtobusida esa 7 soat yo’l yurilgan. Agar avtomashina 90 km/s va avtobus 60 km/s tezlik bilan harakatlangan bo’lsa, ulardan qaysi biri ko’p masofani o’tgan va qanchaga ko’p?

4. Qavslarni shunday qo’yingki, to’g’ri tenglik hosil bo’lsin:

$$9003 - 2178 + 1359 : 3 = 1822$$

5. Ekin maydonining yuzasi 2100 m^2 . Maydonning uzunligi 60 m. Ekin maydonining eni nimaga teng?

4-Variant

1. Amallarni bajaring :

$$84250 - 5306$$

$$76240 - 4135$$

$$278 \cdot 7$$

$$62400 : 300$$

$$27844 + 3216$$

$$4600 \cdot 2$$

$$62400 : 300$$

$$8 \text{ kg } 685 : 5$$

2. Tenglamani yeching:

$$x : 27 = 35$$

$$500 - x = 320$$

3. Masalani yeching:

Ekin maydonidan 16252 kg piyoz yig’ishtirib olindi. 180 kg piyoz xo’jalik da ishlatish uchun qoldirildi, qolgan hosil bozorda sotildi. Necha kilogramm piyoz sotilgan?

4. Qavslarni shunday qo’yingki, to’g’ri tenglik hosil bo’lsin:

$$3245 + 3503 - 1299 : 4 = 3796$$

5. Sport maydonchasining yuzasi 1472 m^2 . Maydonchaning eni 32 m. Sport maydonchasining uzunligi nimaga teng?

5-Variant

1. Amallarni bajaring:

$$43820 + 1625$$

$$62210 - 2317$$

$$258 \cdot 3$$

$$39844 : 7$$

$$104640 - 96205$$

$$1258 \cdot 5$$

$$72000 : 90$$

$$13 \text{ m } 8 \text{ sm} : 6$$

2. Tenglamani yeching:

$$36 : x = 4$$

$$x - 245 = 356$$

3. Masalani yeching:

Sirkda birinchi qatorda 54 ta, ikkinchi qatorda birinchi qatorga qaraganda 12 ta ortiq, uchinchi qatorda birinchi qatorga nisbatan 2 marta ortiq joy band bo'ldi. Uchinchi qatorda nechta joy band bo'lgan?

4. Qavslarni shunday qo'yingki, to'g'ri tenglik hosil bo'lsin:

$$8000 - 4536 + 165 \cdot 3 = 2969$$

5. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 165 mm bo'lib, uni esa undan 45 mm qisqa. To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping.

6-Variant

1. Amallarni bajaring:

$$63248 - 2843$$

$$16890 - 2340$$

$$166 \cdot 4$$

$$55140 : 6$$

$$19873 + 3216$$

$$2364 : 3$$

$$58 \text{ m } 71 \text{ sm} : 3$$

$$2841 \cdot 3$$

2. Tenglamani yeching:

$$x : 8 = 125$$

$$720 - x = 187$$

3. Masalani yeching:

To'qimachilik korxonasida birinchi kuni 45 to'p chit to'qildi. Ikkinchi kuni 48 to'p chit to'qildi. Agar har to'pda 32 m mato bo'lsa, shu ikki kunda necha metr chit ishlab chiqilgan?

4. Qavslarni shunday qo'yingki, to'g'ri tenglik hosil bo'lsin:

$$5144 + 3784 : 62 \cdot 9 = 1296$$

5.Kvadrat shaklidagi shaxmat taxtasi qirrasining uzunligi 68 sm. Shaxmat taxtasining perimetri va yuzasini hisoblang.

JISMONIY TARBIYA

Tushuntirish xati

2012-2013 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablari 4-sinf o'quvchilari jismoniy tarbiya fanidan amaliy va nazariy qismlaridan bosqichli nazorat imtihonlarini topshiradi.

Bosqichli nazorat imtihonini o'tkazishdan asosiy maqsad, DTS va o'quv dasturida berilgan mezon talablari asosida o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashdir.

Bosqichli nazorat imtihonlarini talab darajasida o'tkazish maqsadida 10 kun oldin maktab sport maydoni (zali) va sport anjomlari, imtihon materiallari tayyorlab qo'yilishi kerak.

Maktab direktorining buyrug'i bilan imtihonni qabul qilish kuni, hay'at a'zolari, qo'shimcha maslahat darslari va amaliy mashg'ulotlar jadvali tashkil qilinadi. Bosqichli nazorat imtihoni bo'yicha hay'at a'zolari tarkibi jami 3 kishidan iborat bo'lib, unga imtihon raisi (maktab direktori), imtihon qabul qiluvchi (jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi), assistent (yordamchi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi) kiradi. Shu bilan birga bosqichli nazorat imtihonning amaliy qismida tibbiy xodim bo'lishi shart.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining sharoiti va mavjud sport anjomlaridan kelib chiqqan holda bosqichli nazorat imtihonining amaliy mashg'ulot biletlariga 25%gacha o'zgartirish kiritishlari mumkin. Shu bilan birga tibbiyot muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan ozod etish to'g'risidagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan o'quvchilar bosqichli nazorat imtihonidan ozod e'tiladi. Ushbu o'quvchilarning yakuniy ballari o'quv yilida (choraklar davomida) olgan baholaridan kelib chiqqan holda qo'yiladi. Mazkur masalalar maktabning pedagogik kengashida ko'rib chiqilib, muhokama etilgan bo'lishi shart.

Bosqichli nazorat imtihoni materiallari. Bosqichli nazorat imtihon materiali hujjatlari har bir sinf uchun alohida (10 talik fayil) bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilar (ozod etilgan o'quvchilar alohida) ro'yxati; imtihon biletlari 11 ta (amaliy mashg'ulot biletlari og'il va qiz bolalar uchun 5 tadan, nazariy savollar 1 ta) muhirlangan konvertda bo'lishi; imtihon dalolatnomasi (muhirlangan konvertlar o'quvchilar tomonidan tanlanib, ochilganligi hususida), bayyonnoma (o'quvchilar amaliy va nazariy qismlardan erishgan me'yor natijalari hamda ballari qayd etib boorish uchun) bo'lishi lozim.

Amaliy va nazariy qism bir kunda o'tkazilishi, konvertlari imtihon kuni ochilishi hamda dalolatnoma, bayonnomalar imtihon jarayonida to'ldirib borilishi shart.

Bosqichli nazorat imtihonining amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi. Bosqichli nazorat imtihonining amaliy qismini topshirish uchun sinf ikki guruhga, ya'ni o'g'il va qiz bolalarga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi (5 ta) konvertlardan birini tortadi. Shu tortilgan konvertdagi bilet bo'yicha o'z guruh a'zolari bilan ko'rsatilgan tartibda birin-ketin topshiradi. Qolgan konvertlar ochilmaydi.

Bosqichli nazorat imtihonining nazariy qismini o'tkazish tartibi. Nazariy qism oldindan tayyorlab qo'yilgan sinf xonasida o'tkaziladi. Bunda nazariy qism konverti ixtiyoriy biror-bir o'quvchi tomonidan ochiladi. Har bir o'quvchi nazariy qism uchun tayyorlab qo'yilgan 30 ta savol biletlaridan bittasini tortadi hamda og'zaki javob beradi.

Bosqichli nazorat imtihoni bo'yicha o'quvchilarni baholash. O'quvchilarni amaliy sinov mashg'ulotlari bo'yicha baholashda erishgan me'yorlariga ko'ra hamda nazariy qism savoliga bergan javoblariga ko'ra baholanadi. O'quvchining har bir amaliy mashg'ulotidan va nazariy savolga bergan javoblari 5 ballik tizim asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib o'rtacha baho chiqariladi. Masalan: $5+4+4+4+4=21:5=4.2$ yaxlitlangan holda 4 baho qo'yiladi.

Bosqichli nazorat imtihon dalolatnomasini to'ldirish namunasi.

D A L O L A T N O M A

Tuzildi ushbu dalolatnoma, shu haqdakim 2013 yil “___” may kuni ___maktabning 4-“___” sinf o'quvchilari tomonidan bosqichli nazorat imtihon konvertlari ochildi.

Biz kim dalolatnoma tuzuvchilar: imtihoni hay'ati raisi _____ (F.I.), imtihon oluvchi o'qituvchi _____ (F.I.), imtihon assisenti _____ (F.I.) lar nazorati ostida amalga oshirildi. Sinf o'quvchilaridan _____ nafari ishtirok etdi.

Amaliy:

O'g'il bolalardan _____ (F.I.) Bilet № _____ (imzo)

Qiz bolalardan _____ (F.I.) Bilet № _____ (imzo) tortildi.

Nazariy: _____ (F.I.) _____ (imzo) tomonidan ochildi.

Imtihon hay'ati raisi: _____ (F.I.) _____ (imzo)

Imtihon oluvchi o'qituvchi: _____ (F.I.) _____ (imzo) M.O'.

Imtihon assistenti: _____ (F.I.) _____ (imzo)

1. Bosqichli nazorat imtihon bayonnomasini to'ldirish namunasi.

2013 yil _____-may № _____ umumiy o'rta ta'lim maktabi

4 - “___” sinf ___ (o'g'il, qiz bolalar) Bilet № _____

B A Y Y O N N O M A S I

№	O'quvchilarning F. I.	60 m yugurish		Gimnastika		Basketbol		Turgan joydan uzunlikka sakrash		Nazariy		Umumiy ball
		natija	ball	natija	ball	natija	ball	natija	ball	Bilet №	ball	
1.	<i>Tohirov O'ktam</i>	<u>10,5</u>	<u>5</u>	-	<u>4</u>	<u>2</u>	<u>4</u>	<u>140</u>	<u>4</u>	<u>15</u>	<u>4</u>	<u>4</u>
2.												
3.												

Imtihon hay'ati raisi: _____ (F.I.) _____ (imzo)
 Imtihon oluvchi o'qituvchi: _____ (F.I.) _____ (imzo)
 Imtihon assistenti: _____ (F.I.) _____ (imzo)

M.O'. "___" _____ 2013 yil

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezon

T/r	Baholash mezon	Ball
1.	Savol mazmunan to'la ochib berilsa, fikrlari to'liq hamda aniq bo'lib, jismoniy tarbiya va sportga bog'liq holda ifodalay olsa.	5
2.	Javob mazmunan to'g'ri, jismoniy tarbiya va sportga bog'liq holda bo'lib, lekin ikkilanish va taxmin bo'lsa.	4
3.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, qisman to'g'ri bo'lib, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar to'g'ri xulosalanmagan bo'lib, xatolar ko'p bo'lsa.	2
5.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar noto'g'ri talqin etilgan, xatolar ko'p bo'lsa.	1

Amaliy mashg'ulotlarni baholash mezon

T/r	Baholash mezon	Ball
1.	Talab qilingan mashqlarni bajarishda mashq elementlari bajarilishi ketma-ketlik asosida va ular o'rtasidagi bog'lanish to'g'ri ishonchli bajarilgan bo'lib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa.	5
2.	Talab qilingan mashq erkin, ishonchli elementlarga bog'liq holda bajarilib, 1-2 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa.	4
3.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib, 3-4 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan	3

	foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa.	
4.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib, 3-4 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa. Mashq bajarishda 3 tadan ortiq va juz'iy qo'pol xatoga yo'l qo'yilsa.	2
5.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar bajarilishida qo'pol xatolarga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etilmasa, harakat sust bo'lib, mashq to'liq bajarilmasa.	1

Nazariy savollar

1. "Umid nihollari" sport musobaqasi haqida tushuncha bering.
2. Sport va harakatli o'yinlari nimasi bilan farq qiladi?
3. Turgan joydan uzunlikka sakrash texnikasi qanday bajariladi?
4. Kun tartibi deganda nimani tushunasiz va u qanday bo'lishi kerak?
5. Turgan joydan tennis to'pini uloqtirish qanda bajariladi?
6. Qo'l to'pi o'yini maydoni, o'yinchilar soni, darvoza o'lchami, to'p og'irligi va aylanasi haqida aytib bering.
7. Yurish va yugurish nimasi bilan farq qiladi?
8. Arg'amchida sakrash mashqini bajarganda qanday jismoniy sifatlar rivojlanadi?
9. Qanday suzish usullari mavjud va ularning harakatlanish jarayonlarini farqlab bering?
10. Tayyanib sakrash nima va uni bajarishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
11. "O'zbekiston iftixorlari" fahriy unvoniga sazovor bo'lgan 10 nafar sportchilarni sanab, sport turlarini aytib bering.
12. Chiniqish va uning turlari haqida aytib bering.
13. Basketbol o'yini maydoni, o'yinchilar soni, to'p og'irligi va aylanasi haqida aytib bering.
14. Mashg'ulot jarayonida shikastlanishning oldini olish va birinchi yordam ko'rsatish qanday amalga oshiriladi?
15. Jismoniy mashqlarni bajarishda to'g'ri nafas olishning usullarini aytib bering.
16. Gimnastika va uning turlari.
17. Jismoniy sifatlarga ta'rif bering.
18. 10 ta umumrivojlantiruvchi mashqlarni ko'rsatib, ularga ta'rif bering.
19. Gimnastika mashqlarini bajarishda foydalaniladigan sport anjomlarini aytib bering.
20. Arqonga tirmashib chiqish usullari va ularni bajarish tartibini aytib bering.
21. "Alpomish va Barchinoy" maxsus test sinovlari haqida tushuncha bering.
22. Sport o'yinlari (voleybol, basketbol, qo'l to'pi) va ularning farqlari nimada?
23. Futbol o'yinida qanday atamalar mavjud bo'lib, qaysi holatlarda ishlatiladi?
24. O'zbekistonda ommaviy sport turlari qaysilar?
25. Qomatni buzilishiga nima sabab bo'ladi va qanday to'g'ri shakllantiriladi?
26. Yengil atletika va uning turlari.
27. Olimpiada o'yinlari haqida tushuncha bering.

28. Saf deb nimaga aytiladi va saf mashqlariga nimalar kiradi?
29. O'quvchining shaxsiy va jamoat gigiyenasini aytib bering.
30. Akrobatika nima? Qanday mashqlardan iborat?

Amaliy sinov – mashg'ulot
(qiz bolalar uchun)

1–bilet

1. **Yengil atletika.** Turgan joydan uzunlikka sakrash.
Me'yor: (sm) 140 – 120 – 100 – 80.
2. **Gimnastika.** Yakkacho'p ustida qo'llarni turli holatlarda harakatlantirib va oyoq tagidan qarsak chalib yurish. “Qaldirg'och” hosil qilish.
Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.
3. **Voleybol.** Voleybol to'pini ikki qo'lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to'pni ikki qo'llab yuqoridan qaytarish.
Me'yor: (marta) 10 – 8 – 5 – 2.
4. **Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.
Me'yor: (daqiq) 6,00 – 6,30 – 7,00 – 7,30.

2 – bilet

1. **Yengil atletika.** 4x10 metrga mokisimon yugurish.
Me'yor: (soniya) 11,5 – 12,0 – 12,5 – 13,0
2. **Gimnastika.** Gardishni 1 daqiqagacha belda aylantirish..
Me'yor: (marta) 55 - 50 – 40 - 30.
3. **Qo'l to'pi.** To'pni yerga urib olib yurish, 10-15 metrga yugurish texnikasini bajarish.
Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.
4. **Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash
Me'yor: (sm) 260 – 230 – 200 – 170.

3 – bilet

1. **Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.
Me'yor: (sm) 260 – 230 – 200 – 170.
2. **Gimnastika.** Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.
Me'yor: (marta) 70 – 60 – 50 – 45.
3. **Basketbol.** Basketbol to'pini yo'nalishini o'zgartirib 30 m (2 x 15) olib yurish (Ilon izi).
Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.
4. **Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.
Me'yor: (soniya) 10,8 – 11,3 – 11,8 – 12,3

4 – bilet

1. **Yengil atletika.** Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.
Me'yor: (metr) 18 – 15 – 13 – 10.
2. **Gimnastika.** Oldinga, orqaga ikki martadan umbaloq oshish. “Ko'prik” hosil qilish.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

3. Voleybol. Voleybol to'pini ikki qo'lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to'pni ikki qo'llab yuqoridan qaytarish.

Me'yor: (marta) 10 – 8 – 5 – 2.

4. Yengil atletika. 4x10 ga mokisimon yugurish.

Me'yor: (soniya) 11,5 – 12,0 – 12,5 – 13,0.

5 – bilet

1. Yengil atletika. 30 metrga yugurish.

Me'yor: (soniya) 5,5 – 6,0 – 6,8 – 7,5.

2. Gimnastika. Gimnastika o'rindig'iga tayangan holda qo'llarni bukib yozish.

Me'yor: (marta) 5 – 4 – 3 – 2.

3. Basketbol. To'pni ko'krakdan halqaga (3,5 metrdan) tashlash 8 imkoniyatdan.

Me'yor: (aniq tushirilgan to'plar soni, marta) 3 – 2 – 1.

4. Yengil atletika. Yugurib kelib balandlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 80 – 70 – 60 – 50.

(o'g'il bolalar uchun)

1-bilet

1. Yengil atletika. 30 metrga yugurish.

Me'yor: (soniya) 5,3 – 5,8 – 6,5 – 7,3.

2. Gimnastika. Oldinga, orqaga ikki martadan umboloq oshish. "Ko'prik" hosil qilish.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

3. Qo'l to'pi. To'pni yerga urib olib yurish, 10-15 metrga yugurish texnikasini bajarish.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi

4. Yengil atletika. Turgan joydan uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 160 – 140 – 120 – 100.

2-bilet

1. Yengil atletika. 60 metrga yugurish.

Me'yor: (soniya) 10,5 - 11,0 - 11,5 – 12,0.

2. Gimnastika. Polga qo'llar bilan tayangan holda qo'lni bukish va yozish.

Me'yor: (marta) 10 – 8 – 6 – 4.

3. Futbol. Futbol to'pini yo'nalishini o'zgartirib 30 m (2 x 15) olib yurish.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratiladi.

4. Yengil atletika. Yugurib kelib balandlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 90 – 80 – 70 – 60.

3-bilet

1. Yengil atletika. Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

Me'yor: (metr) 27 – 25 – 23 – 20.

2. Gimnastika. Baland turnikda tortilish.

Me'yor: (marta) 5 – 4 – 3 – 2.

3. Voleybol. Voleybol to'pini ikki qo'lda devorga uloqtirib, qaytayotgan to'pni ikki qo'llab qaytarish.

Me'yor: (marta) 10 – 8 – 5 – 2.

4. Yengil atletika. 1000 metrga yugurish.

Me'yor: (daqiqqa) 5,30 – 6,00 – 6,30 – 7,00.

4-bilet

1. Yengil atletika. 4x10 metrga mokisimon yugurish.

Me'yor: (soniya) 11,0 – 11,5 – 12,0 – 12,5.

2. Gimnastika. Qo'llar bosh orqasida, chalqancha yotgan holda, 1 daqiqa davomida gavdani ko'tarib o'tirish.

Me'yor: (marta) 15 – 13 – 8 – 5.

3. Basketbol. To'pni ko'krakdan halqaga (3,5 metrdan) tashlash 7 imkoniyatdan.

Me'yor: (aniq tushirilgan to'plar soni, marta) 3 – 2 – 1.

4. Yengil atletika. Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 300 – 260 – 230 – 200.

5-bilet

1. Yengil atletika. Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

Me'yor: (sm) 300 – 260 – 230 – 200.

2. Gimnastika. Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

Me'yor: (marta) 60 – 50 – 40 – 35.

3. Futbol. Futbol to'pida jangliyor qilish.

Me'yor: (marta) 5 – 4 – 3 – 2.

4. Yengil atletika. Yugurib kelib tennis koptogini uzoqqa uloqtirish.

Me'yor: (metr) 27 – 25 – 23 – 20.